

**APPLICATION OF MODERN INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY SCHOOL - AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION****Dilshoda N. Rakhmonova***Lecturer**Termez State University**Termez, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: minutes of musical literacy, interactive, interactive methods, psychological and physiological aspects of students.

Received: 19.06.22**Accepted:** 21.06.22**Published:** 23.06.22

Abstract: This article is based on interactive, interactive methods, taking into account the moment of formation of musical literacy in the lessons of "Musical Culture" in elementary school, as well as the psychological and physiological aspects of the activities of teachers and students in the organization of music circles. ways and means to achieve the purposeful use of music, the formation of musical experiences and the formation of the necessary knowledge, skills, competencies, musical competence, musical literacy or effective use of time in the lessons and the interactive organization of lessons and lessons.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH - TA'LIM TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI**Dilshoda N. Raxmonova***O'qituvchi**Termiz davlat universiteti**Termiz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: musiqa savodxonligi daqiqasi, interfaol, interaktiv metodlar, o'quvchilarining psixologik - fiziologik jihatlari.

Annotatsiya: Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktabalarining boshlang'ich sinf "Musiqa madaniyati" darslarida musiqa savodxonligi daqiqasini, hamda musiqa to'garaklarini tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning psixologik - fiziologik jihatlarini inobatga olgan holda, interfaol, interaktiv metodlardan maqsadli foydalanishni, musiqiy taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini, kompetensiyani hosil

etishni, musiqaga oid savodxonlik yoki dars mashg‘ulotlarini vaqtidan unumli foydalanish natijasida dars va mashg‘ulotni interfaol tashkil etishga erishish yo‘llari va vositalari ko‘rsatib berilgan.

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ - ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Дилшода Н. Рахмонова

Преподаватель

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: минут музыкальной грамоты, интерактив, интерактивные методы, психологические и физиологические аспекты учащихся.

Аннотация: Данная статья основана на интерактивных, интерактивных методах с учетом момента формирования музыкальной грамоты на уроках «Музыкальной культуры» в начальной школе, а также психологических и физиологических аспектов деятельности учителей и учащихся при организации музыкальных кружков. пути и средства достижения целенаправленного использования музыки, формирования музыкальных впечатлений и формирования необходимых знаний, умений, компетенций, музыкальной компетентности, музыкальной грамотности или эффективного использования времени на уроках и интерактивной организации уроки и уроки.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxaatlarning bosh maqsadi va xarakatga keltiruvchi uning kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol avloddir. Mamlakatimiz rivojlanishining muxim sharti zamонавиқ iqtisod, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimiga amal qilinishidir. Xalq ta’limi tizimida “Milliy o‘quv dasturi”ni amalga oshirishda uzuksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamонавиқ ilmiy fikrlar, yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub isloxaatlari ko`zda tutilgan. Buning uchun avvalo uzuksiz ta’lim tizimining barcha shakldagi ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ta’minlovchi ilg‘or ilmiy metodik jixatdan asoslangan o‘quv qo’llanmalarini shuningdek metodikalarni amalda qo’llash muhim hisoblanadi. Fan va texnika, ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta’lim tarbiya berishning maqsad, mazmun, metod vositalari va tashkil etilishini ilmiy jixatdan ta’minalash musiqa faninning ham dolzarb muammolaridandir.

ASOSIY QISM

Shu o'rinda yaqin tarixga nazar solsak O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida "**Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo'l topolmaymiz.** Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur." Shu bois ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim jarayoni bilim va tajribani o'quvchiga uzatish, ishlab chiqarish moddiy muxiti faoliyatida shuningdek fan, madaniyat xizmatlarida ishtirok etadi. Yosh pedagoglar mutaxasisligiga mos mavjud bilimlardan qatiy nazar, ular o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, axborot – kommunikativ texnologiya va o'qitish metodikalariga bog'liq zarur zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo`lishlari kerak.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani asosiy muammosi - o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. Shu nuqtaynazardan musiqa darslarida o'quvchi shaxsi uning intilishlari, qobiliyatları va qiziqishlarini xisobga olgan holda 1-sinfdan 7-sinfgacha bo'lgan sinflar uchun yangi "Milliy o'quv dasturi" tuzildi va ushbu dastur asosida darsliklar, metodik qo'llanmalar tavsiyanomalar yaratilmoqda. Bunda yetti yillik musiqa fanini o'qitishda ko'zlangan maqsad, o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek, klassik va zamonaviy san'at haqidagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirish, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini egallah hamda hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

"Milliy o'quv dasturi"ning musiqa fanida keltirilgan maqsad hamda vazifalardan kelib chiqib biz, dastur asosida musiqa darsini sifatli, pedagogik va metodik jixatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o'qituvchi ijodkor, o'z kasbini va o'quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg'uchi, metodika va pedagogikani puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak deb xisoblaymiz. Musiqa ta'limini milliy asosini tarkib toptirishda, fortepiano asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'u asboblaridan ham foydalana

olishi zarurdir. Lekin milliy cholg‘u asboblarini nazariy jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rganishga qaratilgan bilim ko‘nikma, malakani birinchi bo‘lib fortepiano cholg‘u asbobi, undagi klavishlar, notalarning ketmaketligi, dinamik belgilar, notalarning bo‘linishi hamda sanalashi, bir so‘z bilan aytganda boshlang‘ich musiqa savodxonligining fundamental vositasida sifatida oldiga bir qator vazifalarni mujassamlashtiradi va ta’limiy maqsadga erishishda o‘qituvchi hamda o‘quvchiga birinchi darajali didaktik vosita xisoblanadi. Boshlang‘ich musiqa darslari mobaynida o‘quvchilarga beshta faoliyat turiga muvofiq nazariy hamda amaliy bilimlarni qiziqarli, tushunarli va rang barang qilib o‘rgatishda muhim xisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022 – yil 2-fevralda №PQ-112 sonli “Madaniyat va san’at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori aynan aholi, ayniqsa olis hududlarda istiqomat qiladgan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikasning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagи ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minalashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnong taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq a) bandida ko‘rsatilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida: milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishida; musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘srimcha ravishda har hafta milliy cholg‘u asboblarida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslar o‘tkazikishida; musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida; notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta’minalash umuta’lim muktablarini darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmamar bilan ta’minalash tizimiga kiritilishida; PQ-112-tonli qaroriga 1-ilovagada keltirilgan Xalq ta’limi vazirligi tasarrufdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’milanishi lozim bo‘lgan milliy musiqa cholg‘ulari ro‘yxatida keltirilgan (dutor, do‘mbira, doyra, tanbur, rubob, g‘ijjak, nay) shu bilan birga o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ushbu ro‘yxatga keltirilmagan boshqa musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishini ham tashkil etishida yaqindan ko‘maklashishda pedagogic texnologiyalarning o‘rni beqiyos xisoblanadi. Shu bois “Sozni-sozla” pedagogik texnologiya orqali milliy cholg‘u asboblaridan dutor, do‘mbira, doyra, tanbur, rubob, g‘ijjak, nayni ijro qila olish mahoratini shakillantirishda qolaversa, ularning tuzulishi jihatidan strukturasini o‘quvchilarga dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rgatish maqsadida ko‘rgazma shaklida ma’lumotlar hamda bilimlarni mustahkamlash maqsadid “pazl”

(boshqotirma)si ishlab chiqildi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga boshlang‘ich milliy cholg‘ular haqida asosiy ma’lumotlarga ega bo‘lisharini maqsad qilib olingan.

Ushbu “**SOZNI SOZLA**” o‘yin texnologiyasi maxsus bo‘laklardan tashkil topgan bo‘lib o‘quvchi mavzuga oid bilimini tekshirish vaqtida uni qiziqtirib soz bo‘laklaridagi savollarga to‘g‘ri javob berishga va sozni to‘g‘ri tuza olishga undaydi.

“SOZNI SOZLA”

Texnologianing tavsifi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni, yoki o‘tgan Mavzuni mustahkamlashda qolaversa yangi Mavzuni mustahkamlashda o‘quvchilarni baholashga qaratilgan.


Texnologianing maqsadi. O‘quvchilarni dars jarayonida tezkor savol-javoblarda faol ishtirok etishlarida, milliy cholg‘u asbobining tuzulish jihatidan ham bohabar bo‘lishlarida, yakka hamda guruhlaarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, jamada masuliyatlilik va birdamlikni o‘rgatish.

Texnologianing qo‘llanilishi. Ushbu “**SOZNI SOZLA**” texnologiyasi maxsus bo‘laklardan tashkil topgan bo‘lib o‘quvchi mavzuga oid bilimini tekshirish vaqtida uni qiziqtirib soz bo‘laklaridagi savollarga to‘g‘ri javob berishga va sozni to‘g‘ri tuza olishga undaydi. Texnologiya o‘quv mashg‘ulotining barcha turlarida o‘tilgan mavzuni yoki dars yakuni bilan bog‘liq bo‘limini tugallashganda, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo‘ljallangan.

Texnologianing tuzilish tartibi. Rangsiz tasvirlangan soz tasviri ustiga rangli tasvirlangan lekin 12 ta bo‘lakka bo‘lingan bo‘lakchalar joylashtirib chiqilishi kerak bo‘ladi. o‘z ornida 12 ta bo‘lakchalar magnitli bo‘lib berilgan topshiriqni bajarishga qulaylik yaratish hamda ko‘zlagan maqsadga erishish yo‘lida xizmat qiladi. Bo‘lakchalar orqasida mavzuga oid savollar va topshiriqlar yozilgan bo‘ladi. Dars davomida berilgan savol va topshiriqlarning barchasiga to‘laqonli javob berilsa “soz sozlanadi”. Agar biror bir bo‘lakning savol yoki topshirig‘iga javob berilmasa “soz sozlanmay qolish ehtimoli” mavjud bo‘ladi. Natijada o‘quvchi dars davomida berilgan savol va topshiriqlarni astoydil bajarishga xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:

“SOZNI-SOZLA”



Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar maxsus bo'laklarga joylashtirib chiqiladi. Yakka va guruhlarga bo'lib o'tkazish maqsad qilib olingen bo'lsa jami tarqatma savollari 12 ta ni tashkil qilishi kerak. "SOZNI-SOZLA" 12 bo'lakdan iborat.

Texnologiyaning o'tkazilish tartibi:

- ✓ O'quvchilarni (sharoitdan kelib chiqqan holda) guruhlarga ajratiladi.
- ✓ O'quvchilarni texnologiyani o'tkazishga qo'yilan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- ✓ Savollarni maxsus bo'laklarga joylshtirilgan xolatda guruh a'zolariga tarqatiladi;
- ✓ O'qituvchi belgilagan vaqt ichida maxsus bo'lakchalardagi savollarga guruh a'zolari tomonidan yakka va mustaqil ravishta bajariladi;
- ✓ Har bir to'g'ri javob berilgan maxsus bo'lakchalar guruh a'zolari tomonidan terilib boriladi va xisobga olinib sozni solashga harakat qilinadi;

✓ Vazifa bajarilgandan so‘ng qaysi guruhning maxsus bo‘laklari yig‘indisidan soz-sozlanadi yoki, aksincha sozlanmay qolishi aniqlanadi;

✓ O‘qituvchi savollar berilgan maxsus bo‘lakchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda tog‘ri yoki notog‘rililiga yana bir bor oydinlik kiritib olinadi;

✓ Savollar berilgan maxsus bo‘lakchalardan kelib chiqqan holda har biri o‘quvchining bergan javobiga ballar beriladi va natijada SOZNI-SOZLASHga erishiladi, yoki aksincha SOZ-SOZLANMAY qoladi;

✓ Sozlanmay qolgan ya’niy javoblar tog‘ri berilmagan jamoaga nisbattan ball berilmaydi, kelgusi dars mashg‘ulotlariga qo‘sishimcha ravishda o‘tilgan dars mashg‘ulotini qo‘sishimcha o‘qib kelish ham vazifa qilib beriladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilimi va mahoratiga bog‘liq. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelgan davrda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lgan, yangilikni o‘rganishga doim tayyor turgan, hamkorlikdan cho‘chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo‘lishi kerak va bu borada ta’limda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishiga yo‘l ochilishi maqsadga erishish yo‘lidagi to‘g‘ri qadam. Bundan tashqari o‘quvchilarни interfaollikka yetaklovchi yana bir “Yetti shar” interfaol metodi shular jumlasidan xisoblanadi.

“YETTI SHAR”

Texnologiyaning maqsadi

Y-engil - topshiriq

E-pchil – o‘quvchi

T-o‘g‘ri – maqsadga erishish

T-ashkilotchilik – o‘qituvchi

I-jodkor – o‘qituvchi va o‘quvchi

Sh-axsning - barkamolligi

A-qliy – tafakkurning takomillashishi

R-ivojlanishi – bilimni o‘stirish

Texnologiyaning tavsifi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarни o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlash hamda xotiralash, o‘zlashtirgan bilimlarni yodga solish, barcha fikr – mulohazalarni umumlashtirib olish va yozma, rasm, amaliy ko‘rinishda ifodalab qo‘llashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi. texnologiya maxsus klavishlardan hamda rang-barang havo sharlaridan tashkil topgan bo‘lib, o‘quvchilarda ranglarni yodda saqlash va ruhiyatiga ranglar orqali ijobjiy ta’sir ko‘rsatish bilan ularda topshiriqlarni bajarish orqali guruh hisobiga sharlarni rag‘bat

shaklida ega bo‘lish va shu bilan birgalikda cholg‘u asbobidagi notalarning joylashuvini tezda eslab olishda, yodda saqlashda hamda musiqa o‘rganish davrida notalarni eslab ijro etish va tekshirishda, qolayversa jamoa bo‘lib ishslashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha xosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga o‘quvchini undaydi.

Texnologiyaning qo‘llanilishi. Ushbu “YETTI SHAR” texnologiyasini musiqa darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda (imkon qadar) amaliy mashg‘ulotlarda cholg‘u asbobi (fortepiano) bilan mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali yakka va kichik guruhlarda o‘tkazish yoki ochiq darslarni tashkil etishda qo‘llash mumkin.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar; Rangsiz tasvirlangan yettita klavishlardan tashkil topgan oktavaga rangli sharlar belgilab olinadi. Ushbu sharlarga o‘qituvchining talab va taklifidan kelib chiqqan holda savollar, topshiriqlar, bir musiqa asarini taktlarga bo‘lgan holda ijro etish vazifasini sharlarga yopishtirib chiqiladi. Bundan tashqari har bir o‘quvchiga oq A-4 format qog‘ozga bitta oktava tasviri tushurilgan qog‘oz va unga sharlarni rangli tasviri tushuriladi va 1 dan 7 gacha raqamlanadi. Raqamlar ostida o‘qituvchida 14 ta savollar banki bo‘ladi. YA’niy (do, re, mi, fa, sol, lya, si va si, lya, sol, fa, mi, re, do) ushbu notalarning har birida savollar va topshiriqlar berilgan bo‘ladi.



Texnologiyaning o‘tkazilish tartibi:

- ✓ O‘quvchilarni (sharoitdan kelib chiqqan holda) guruhlarga ajratiladi.
- ✓ O‘qituvchi mashg‘ulot boshlangunga qadar o‘quv materiallarini 14 ta savol va topshiriqlarga bo‘lib oladi.
- ✓ Sharoitdan kelib chiqqan holda havo sharlari keltirib klavishlarga yopishtiriladi yoki aksincha har bir o‘quvchiga oq A-4 format qog‘ozga bitta oktava tasviri tushurilgan qog‘oz va unga sharlarni rangli tasviri tushuriladi
- ✓ O‘quvchilarni texnologiyani o‘tkazishga qo‘ylan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- ✓ Savollarni maxsus bo‘laklarga joylshtirilgan xolatda guruh a’zolariga tarqatiladi;

✓ O‘qituvchi belgilagan vaqt ichida maxsus havo sharlaridagi savollarga guruh a’zolari tomonidan yakka va mustaqil ravishta bajariladi;

✓ Har bir to‘g‘ri javob berilgan havo shari guruh a’zolari tomonidan yig‘ib boriladi va xisobga olinib oktavadagi barcha notalarda keltirilgan savollarga javob berishga harakat qilinadi;

✓ “Yetti shar” texnologiyasida o‘quvchida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmasini rivojlantirish, dars mashg‘ulotlari mobaynida toliqish, zerikishlarni oldinib olib, aksincha dars mashg‘uloti maqsadida keltirilgan bir qator bosqichlarga erishish yo‘lida xizmat qiladi..

XULOSA

Izoh: Yuqoridagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Bundan tashqari;

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchida yengil texnologiya xisoblanadi
2. O‘quvchini qiziqtirib mashg‘ulot mobaynida epchillika undaydi;
3. Dars mashg‘ulotidada berilgan maqsadga erishiladi;
4. O‘qituvchining texnologiyani tashkil etishidagi intilishlari zoya ketmaydi;
5. Mashg‘ulot savollariga javob berish barobarida o‘qituvchi va o‘quvchida ohanglarni o‘rganishga nisbattan ijodkorlik rivojlanadi;
6. Mashg‘ulot bilan bir qatorda o‘quvchilarda musiqa cholg‘usidagi oktavani, undagi notalar (do, re, mi, fa, sol, lya, si va si, lya, sol, fa, mi, re, do)ning joylashuvini ham o‘rganib borishda tafakkurning takomillashishi rivoj topadi.
7. Berilgan bugungi mavzudan o‘quvchilarda yangi bilamlar egallanishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022 – yil 2-fevralda №PQ-112 sonli “Madaniyat va san’at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. B.X. Xodjaev Umumiyy pedagogika «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
3. Q. Rahimov “Musiqaning elementar nazariyasi” Toshkent-2007 Qo‘srimcha adabiyotlar
4. D. Raxmonova ”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2021
5. R. Ishmuhamedov “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” Toshkent-2021